

H.NURMATOV, N.NORXO‘JAYEV

MUSIQA

3-sinf uchun darslik

Qayta ishlangan 11-nashri

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2019

UO'K 372.878(075)
KBK 85.31 ya 72
N 26

Taqrizchilar:

R.Abdullayev – O'zbekiston bastakorlar uyushmasining raisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, bastakor;

Z.Zokirova – Toshkent shahar Yunusobod tumanidagi 17-umumta'lim maktabining musiqa madaniyati fani o'qituvchisi;

Sh.Hakimova – Toshkent shahar Chilonzor tumanidagi 281-umumta'lim maktabining musiqa madaniyati fani o'qituvchisi.



– Ustozingiz ijrosida tinglang!



– Ustozingiz yordamida kuylang!



– Dars tugadi.

**Respublika maqsadli kitob jamg'armasi
mablag'lari hisobidan chop etildi.**

H.Nurmatov, **N.Norxo'jayev.**

Musiqa: 3-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan 11-nashri. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. — 108 b.

UO'K 372.878(075)
KBK 85.31 ya 72

ISBN 978-9943-5550-2-0

© **H.Nurmatov**, **N.Norxo'jayev.**
© **G'afur G'ulom** nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019



SO‘ZBOSHI

Aziz o‘quvchi! Qo‘lingizdagi «Musiqqa» darsligi ko‘plab boshqa darsliklar qatori Istiqlol sharofati ila chop etilib, Mustaqillik ne‘matiga aylandi.

Siz uchun har bir darslik va o‘quv adabiyotlari o‘z o‘rnida aziz, chunki ular bilim va tafakkuringizni o‘stiradi, istiqbol sari yetaklaydi.

Musiqqa insonni g‘aroyib kuy va ohanglar dunyosiga boshlaydi, his-tuyg‘ularini noziklashtiradi, didini charxlaydi, go‘zallikni sevishga o‘rgatadi.

Siz 3-sinfda musiqqa ohanglarini diqqat bilan tinglash hamda qo‘shiqlarni yoqimli, xushohang qilib kuylash malakalarini o‘zlashtirasiz, yangi bastakorlarning ijodi bilan tanishasiz, musiqiy ko‘nikmalaringizni yanada boyitasiz.

Yil davomida kuylaydigan qo‘shiqlaringiz ona-Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalaydi. Baxtli bolalik mavzularini tarannum etadi. Shuning uchun ham kuy va qo‘shiqlar mazmunini chuqurroq anglang, so‘z va ohang birligini idrok eting, ifodali va xushohang tarzda ijro etish malakasini yanada puxtaroq o‘zlashtirib olishga erishing.

Musiqqa va qo‘shiq dilingizga bahra bersin, qalbingizga sevinch va quvonch baxsh etsin, o‘qish va faoliyatingizda Sizga doimo hamroh bo‘lsin.

Mualliflar

BIRINCHI CHORAK

QO'SHIQ KUYLASH QOIDALARI

1. Qo'shiq kuylaganda gavdani to'g'ri va erkin tuting.

2. Qo'shiq kuylaganda tekis nafas oling, kiftlaringiz ko'tarilmasin. Nafasni tejab, jumla oxiriga qadar bir me'yorda yetkazing.

3. Qo'shiqdagi unli tovushli bo'g'inlarni cho'zibroq, undosh tovushli bo'g'inlarni esa tez va burro talaffuz eting.

4. Tovushingizni yengil va yoqimli chiqarishga, qo'shiqlarni esa ifodali aytishga o'rganing.

5. Har bir qo'shiqni tushunib aytishga o'rganib boring.

6. Xor bo'lib qo'shiq aytganda ko'pchilikning ovozigga quloq soling va o'zingizning ovozingiz ajralib qolmasligiga e'tibor bering.

7. O'qituvchining qo'l harakatiga diqqat bilan qarang va barcha ishoralarini aniq bajarishga odatlaning.

8. Ovozingiz baxt-u boyligingiz ekanligini unut-mang. Uni doimo ehtiyot qiling, avaylab asrang. Sog'lom va jarangli ovoz bilan aytilgan yaxshi so'z ham, yaxshi qo'shiq ham dil rohati ekanligini unut-mang.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT MADHIYASI

Abdulla Oripov so'zi

Mutal (Mutavakkil) Burhonov
musiqasi

Tantanavor

f

1. Ser- qu- yosh, hur

f

o'l- kam, el- ga baxt, na-

ff

jot, Sen o'- zing do'st- lar- ga

yo'l- dosh, meh- ri- bon! Meh- ri-

p

bon! Yash- na- gay to- a- bad il-

f *mf*

mu fan, i- jod, Shuh- ra- ting por- la-

sin to- ki bor ja- hon!

OI- tin bu vo- diy- lar —

jon O'z- be- kis- ton, Aj- dod-

lar mar- do- na ru- hi sen- ga yor! U- lug'

xalq qud- ra- ti jo'sh ur- gan za- mon, O- lam-

ni mah- li- yo ay- la- gan di- yor! Bag'- ri

gan di- yor.

1. Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt, najot,
Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon!
Yashnagay toabad ilm-u fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

Naqarot:

Oltin bu vodiylar – jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

2. Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!
Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,
Haqsevar, ona yurt, mangu bo'l obod!

Naqarot:

Oltin bu vodiylar – jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!


PAUZALAR

BUTUN PAUZA

Qo'shiq yoki kuyning biron yerida tovushlarning to'xtashi yoki tinishi zarur bo'lsa, pauzalardan (tinish belgilaridan) foydalaniladi.

Notalar cho'zimi har xil bo'lganidek, pauzalar ham har xil cho'zimda bo'ladi.

Butun pauza butun notaga teng bo'lgani holda mana bunday yoziladi:



The diagram shows two staves. The first staff has a whole rest (a horizontal bar) on the second line. The second staff has a whole note (a circle with a stem) on the second line. Below this, a musical staff in 4/4 time shows a whole rest for the first measure and a whole note for the second measure. The notes are labeled 'bir, ikki, uch, to'rt' for the first measure and 'bir, ikki, uch, to'rt' for the second measure.

YARIMTALIK PAUZA

Yarimtalik pauza yarimtalik notaga teng.

Yarimtalik pauza mana bunday yoziladi:



The diagram shows two staves. The first staff has a half rest (a horizontal bar) on the second line. The second staff has a half note (a circle with a stem) on the second line.

Quyidagi mashqni yarimtalik pauzalarga rioya qilib aytamiz:



A musical staff in 4/4 time showing a sequence of half notes with half rests. The notes are labeled 'do - re - mi - fa - sol - lya - si'.



NAQSH OLMALAR

Rauf Tolib she'ri

Nadim Norxo'jayev musiqasi

Quvnoq



Ol-ma-lar, naqsh ol-ma-lar, Tob-la-na-di qu- yosh - da.



Ol-ma-lar, naqsh ol-ma-lar, Ko'z o-la-di qa -rash - da.



Ol-ma-lar, naqsh ol-ma-lar, Ol-ma-lar, naqsh ol-ma-lar,



Yu-zi-da nur o'r-ma-lar. Ol-ma-lar, naqsh ol-ma-lar,



Pi-yo-la-day yi-rik dir. Ol-ma-lar, naqsh ol-ma-lar,



Meh-na-tim-ga ko'-rik - dir. Ol-ma-lar, naqsh ol-ma-lar,



Ol-ma- lar, naqsh ol-ma-lar, Yu-zi-da nur o'r-ma-lar



Ol-ma- lar, naqsh ol-ma-lar, Yu-zi-da nur o'r-ma-lar.

SALOM, MAKTAB



Egam Rahimov she'ri

Jaloliddin Najmiddinov musiqasi

O'rtacha tez

Sa-lom, mak-tab, jon mak-tab, Se-ni se-va-
man maq-tab. Biz-ga o-chiq qu-cho-g'ing,
Yo-ning-da gul-zor bo-g'ing, zor bo-g'ing.

1. Salom, maktab, jon maktab,
Seni sevaman maqtab.
Bizga ochiq quchog'ing,
Yoningda gulzor – bog'ing.
2. Mana qo'limda kitob,
O'qish kitob ham hisob.
Sharillatib o'qiyman,
Bilag'on bo'lay deyman.
3. Qalam, ruchkam bor, mana,
Yozaman dona-dona.
Xatim bo'lsin chiroyli,
Kulib tursin naq oydek.
4. Salom, maktab, jon maktab,
Qo'shiq aytaman maqtab.
Men ham belcha ushlayman,
Gul bog'ingda ishlayman.

ESLANG

Quyidagi kuy parchalarini nota nomlari bilan aytib ko'rsangiz, o'zingiz o'rgangan qo'shiqlaringizni bilib olasiz:

O'rtacha tez




Shoshilmay



CHORAK VA NIMCHORAK PAUZALAR


Chorak pauza ham chorak nota singari o'z cho'zim va o'lchoviga ega.

Chorak pauza chorak notaga teng bo'lgani holda mana bunday yoziladi:



bir, ikki, bir, ikki, bir, ikki.

Nimchorak pauza nimchorak notaga teng. Nimchorak pauza mana bunday yoziladi:



Quyidagi mashqni nimchorak pauzalarga rioya qilib aytamiz:

Quvnoq



Chaq- qon, chaq- qon kuy- lay- miz.

Ra- von, ra- von kuy- lay- miz.

Musiqa asaridagi pauzalar turlicha bo'lishini bil- dingiz. Quyidagi kuyni tinglang, undagi chorak pau- zaning muntazam takt boshida kelishiga e'tibor qiling:

FERUZA



G'ulomjon Ro'ziboyev musiqasi

Yengil

mf mf

mp mf

mf



DIYOR MADHI

Habib Rahmat she'ri

Nadim Norxo'jayev musiqasi

♩ Kuychan



O- na -Va- tan er- ta- si, Ke- la- jak- ning me- va-



si, Bi- lim, hu- nar e- ga- si



Biz bo'-la-miz al- bat-ta, Ni- yat-lar ul- kan, kat- ta.



A - - -

Ni-yat-lar ul- kan, kat- ta.



1. Ona-Vatan ertasi,
Kelajakning mevasi,
Bilim, hunar egasi
Biz bo'lamiz albatta,
Niyatlar ulkan, katta.
2. Orzularim uch berar,
Diyor mehri kuch berar,
Dilda yorug' tuyg'ular,
Yorug'likka oshnamiz,
Ezgu ishga tashnamiz.
3. Dovrug'lidir Vatanim,
Obro'lidir Vatanim.
Dunyodagi chamanim
Ko'z qoramdek saqlayman,
Ishonchingni oqlayman.
4. Temur bobom dilda bor,
O'lkam bo'lur gul, obod,
Bayroqni tutib ozod,
Shod boramiz ilgari,
Mard g'oliblar singari!



RUSTAM ABDULLAYEV

(1947-y.)



Koʻhna Xorazmning Xiva shahrida tugʻilib oʻsgan Rustam Abdullayev Respublikamiz musiqa sanʼatining ravnaqiga oʻzining munosib hissasini qoʻshib kelmoqda. «Shodimulk», «Sadoqat», «Xiva» nomli operalari, «Quyoshga taʼzim» baleti, 5 ta fortepiano va simfonik orkestr uchun konsert, talaygina qoʻshiq va romanslar kompozitor ijodining bir qismi, xolos. 1995-yildan buyon Oʻzbekiston Bastakorlar uyushmasi raisi.

Rustam Abdullayev yozgan koʻpgina asarlari Germaniya, Angliya, Misr, Gollandiya kabi xorijiy mamlakatlarda ham ijro etilib, musiqa ixlosmandlarini xushnud etgan. Ijodkorning «Mustaqillik lolalarimiz», «Doʻstlik taronasi», «Kulgan koʻzli bolalar», «Diyorimda bayram bugun», «Shodlik qoʻshigʻi», «Navroʻz qoʻshigʻi» kabi 50 dan ortiq rang-barang qoʻshiqlari esa oʻquvchi-yoshlar tomonidan sevib kuylanadi. Kompozitor Rustam Abdullayev bolalar uchun yana koʻplab qoʻshiqlar yozish niyatida.



QO'ZICHOQ

Yo'ldosh Sulaymon she'ri

Rustam Abdullayev musiqasi

O'rtacha tez



Bar-ra pe- chak, sa-ra pe- chak. Te- rib kel- dik



Yur- may dik- dik. Ki- sir- ki- sir, ki- sir- ki- sir.



Bi- sir- bi- sir, bi- sir- bi- sir. U- ni chay- na,



Ba, qo'- zi- choq, U- ni chay-



na, Ma, qo'- zi- choq.

1. Barra pechak,
Sara pechak.
Terib keldik
Yurmay dik-dik.
Kisir-kisir,
Bisir-bisir,
Uni chayna,
Ba, qo'zichoq.
Uni chayna,
Ma, qo'zichoq.

2. Men va Zaynab
Har kun ko'plab
Har xil o'tlar
Terib deymiz:
Egil, egil,
Yegil, yegil,
Bo'lg'in semiz,
Ba, qo'zichoq.
Bo'lg'in semiz,
Ma, qo'zichoq.



DIRIJORLIK HARAKATLARI

Jamoa bo'lib qo'shiq ijro qilinganda hamma bir paytda, tekis kuylashi uchun dirijor rahbarlik qiladi. Dirijor asar ijrosini qo'l harakatlari bilan boshqaradi.

Siz bilasizki, musiqa asarlari turli xil o'lchovda bo'ladi. Shunga ko'ra dirijorlik harakatlari ham o'lchovga qarab turlicha bo'ladi. Dirijorlik haqidagi bilim va malakalarimizni mustahkamlaymiz.


Ikki chorakli o'lchov

Ikki chorakli o'lchovga dirijorlik qilinganda avval qo'llarimiz pastga, keyin yuqoriga qarab harakat qiladi.

Birinchi kuchli hissada qo'limiz pastga tomon harakat qiladi:



Ikkinchi kuchsiz hissada esa qo'limizni yuqoriga ko'taramiz:



Endi 2/4 o'lchovli qo'shiqqa dirijorlik qilib kuylaymiz:

KO'YLAGIM



Po'lat Mo'min she'ri

Doni Zokirov musiqasi

O'rtacha tez



Yan-gi ko'y- lak tik-di- lar a- ya- jo- nim bay-ram- ga.



Se- vin- chim- ga sig'- ma- yin rah - mat de- dim



a- yam- ga. Ko'y- la- gim, ho, ko'y- la- gim,



kiy- sam ke- lar o'y- na- gim.



SHIRIN-SHIRIN

Ibrohim Jiyonov she'ri

Xurshida Hasanova musiqasi

Sho'xchan

Os- mon- da yul- duz- cha-lar, Yo- ni-da bo'l- gim ke- lar.

Bo-g'im- da-gi g'un- cha- lar bi- lan o- chil- gim ke- lar.

O- chil- gim ke- lar, o- chil- gim ke- lar,

Bo-g'im- da g'un- cha-dek o- chil- gim ke- lar.

Shi- rin, shi- rin so'-zim- ga, Jay- ron- gi- na ko'-zim- ga


Tamomlash uchun

Of- tob ku- lub bo- qa- di Oy- dek- ki- na yu- zim- ga.


O'ZINGIZ TOPING


 – yarim nota nechta chorak notaga teng?

 – chorak nota nechaga sanaladi?

 – nimchorak notaning nechtasi chorak notaga teng? Nechtasi yarim notaga teng?

 – bu qanday pauza? U nechaga sanaladi?

 – bu pazuga teng cho'zimdagi notani ayting.

 – bu belgining nomi nima? Vazifasi-chi?



GUL LOLADAN JAMALAK

Qambar Ota she'ri

Nadim Norxo'jayev musiqasi



Sho'x 8

Rang- lar- ga- boy ka- ma- lak



Yay-ra-ta-san os-mon-ni



Yay - ra - ta-san ja-hon - ni Ez - gu-dan -



be-rib da-rak ko'k gum-ba-



zi - da cha-qin Yom-g'ir bor-liq -



ni yu-var Qol-mas zar - ra - cha g'u-bor



os- mon qalb- lar- ga ya- qin



Ka-ma-lak - jon, ka-ma-lak, at-rof yen - gil



o-su - da Yash-nar qiz-lar bo-shi-da gul-lo - la- dan

ja - ma - lak

Gul-lo- la- dan ja-ma-lak

MASHQ KUYLAYMIZ

Qo'shiq kuylaganda so'zlarni tushunarli, ravon talaffuz qilish muhim ahamiyatga ega.

So'z bilan ohang birgalikda mujassamlashib, tinglovchiga yetib borishi lozim.

Quyidagi mashq yordamida talaffuzni o'stirishga harakat qilamiz:

Jon- li, jon- li kuy- lang,

a - niq, bur- ro kuy- lang.

Ort- da qol- mang as- lo,

bir- ga- lik- da kuy- lang.

CHORAK YAKUNI BO'YICHA SAVOLLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Davlat Madhiyasini qanday tinglash kerak?
2. «Diyor madhi» qo'shig'ining musiqasini kim yozgan? Bu qo'shiq mazmunini so'zlab bering.
3. Bu chorakda qanday musiqa asarlarini tingladingiz? Qaysi kompozitor bilan tanishdingiz?
4. Qanday raqsbob kuylarni bilasiz?
5. Siz necha o'lchovli asarga dirijyorlik qila olasiz?
6. Chorak pauza nechaga sanaladi? Nimchorak pauza-chi? Bu pauzalarga qanday notalar teng bo'ladi?
7. Musiqaning qanday ifoda vositalarini o'zlashtirib oldingiz? Musiqada ifoda vositalari nima uchun kerak?
8. Ikki chorakli asarga qanday dirijorlik qilinadi?
9. Sizga qanday qo'shiq va musiqalar yoqadi?

IKKINCHI CHORAK

XONANDALAR ANSAMBLI

Ikki va undan ko'proq ijrochilar jamoasiga «ansambli» deyiladi.

Kuylaydigan jamoaga «xonandalar ansambli» deyiladi.

JONON

Muhammadjon Mirzayev musiqasi



Yengil

A musical score for the piece 'Jonon' in 2/4 time. It consists of five staves of music. The first staff begins with a treble clef and a 2/4 time signature. The first measure is marked with a piano (*p*) dynamic. The second measure is marked with a mezzo-piano (*mp*) dynamic. The third staff has a mezzo-forte (*mf*) dynamic marking. The fifth staff ends with a piano (*p*) dynamic marking. The score includes various musical notations such as eighth and sixteenth notes, rests, and repeat signs.



OLTIN PAXTAM – OPPOG‘IM

Po‘lat Mo‘min she‘ri

Nadim Norxo‘jayev musiqasi

Quvnoq



1. Ol- tin pax- tam, be- g‘u- bo- rim op- po -



g‘im, Hu- zur - jo- nim, mo- miq- qi- nam -



yum- sho- g‘im, Chi- ro- yi- dan



nur ta- ral- gan chi- ro- g‘im,



Cha- man bo‘l- di gul- la- ring- dan har yo- g‘im.

2. Paykallarda termilasan yo‘limga,
Oq qushimsan, qo‘ndiraman qo‘limga,
Hosilingdan shodlik to‘lar ko‘nglimga,
Chanoqlarda qaynab turgan bulog‘im.



CHOLG'UCHILAR ANSAMBLI

Musiqa asarini birgalikda bir xil qilib ijro etadigan cholg'uchilar guruhiga «Cholg'uchilar ansambli» deyiladi. Cholg'uchilar ansambli turli cholg'ulardan tuziladi. Unda rubob, dutor, nay, g'ijjak, chang, tanbur, doira kabi cholg'u sozlari bo'lishi mumkin.

Shuningdek, ansambl bir xil cholg'ulardan ham tuziladi. Masalan: rubobchilar ansambli, dutorchilar ansambli, changchilar ansambli, doyrachilar ansambli va shu kabilar.



UFORI 3 (QIZLAR RAQSI)



Sho'x

O'zbek xalq kuyi

A musical score for a single melodic line in 6/8 time, written in a key with one flat (B-flat). The score consists of eight staves of music. The first staff begins with a treble clef, a key signature of one flat, and a 6/8 time signature. The melody is composed of eighth and sixteenth notes, with some rests and slurs. The piece concludes with a double bar line and repeat dots. A large, semi-transparent watermark 'hito.edu.uz' is overlaid diagonally across the score.

IQBOLINGNI KUYLAYMAN, VATAN

O'ZBEKISTON KEMASI



Yong'in Mirzo she'ri

Ibrohim Hamroyev musiqasi

Quvnoq

G'un - cha - dir or - zu - la - rim, bir kun gul-day
o - chi - lar. Yo'l - la - rim - ga, yul - duz - lar das - ta gul-day
so - chi - lar, so - chi - lar (o). so - chi - lar (o),
das - ta gul - day so - chi - lar.
- lom, sa - lom, sa - lom!

1. G'unchadir orzularim,
Bir kun gulday ochilar.
Yo'llarimga yulduzlar
Dasta gulday sochilar.

2. Mening orzuim nima?
Yashirmayman, aytaman:
Yasasam uchar kema...
Oyga borib qaytaman.

3. Kashfiyotchi egasi
Raketaga qo‘yar nom.
O‘zbekiston kemasi –
Jahonga aytar salom!





VATANIM ZAVQI

Po'lat Mo'min she'ri

Nadim Norxo'jayev musiqasi

Shoshmasdan



Quyidagi kuy parchalarining nota o'lchovini toping:

1)



2)



FARHOD ALIMOV

(1947–2014)



«Biz istiqbol egalari», «Ona tilim – o‘zbek tilim», «Ahillik – do‘stlik», «Chaqqon bola», «Oppoq qandim» kabi ajoyib qo‘shiqlari bilan bolalar qalbidan joy olgan bastakor Farhod Alimov Toshkentda tug‘ilib o‘ydi.

Yoshligidanoq musiqaga bo‘lgan katta ishtiyoq uni, avval, g‘ijjak sozi sirlarini o‘rganishga, so‘ngra kompozitorlik mutaxassisligini egallashga chorladi.

Serqirra ijodkor ko‘plab musiqali spektakllarga musiqa yozgan, xor va yakkaxonlar uchun talaygina qo‘shiqlar yaratgan kompozitordir. Uning simfonik orkestr, xalq cholg‘ulari orkestri uchun yozgan rang-barang asarlari radio to‘lqinlarida muntazam yangrab turadi.



OPPOQ QANDIM

Po'lat Mo'min she'ri

Farhod Alimov musiqasi

Hazilnamo

Choy- ga sol- sam te- rib - te- rib, Sen ke- ta- san
tez- da e- rib, Choy- ga sol- sam te- rib - te- rib,
Sen ke- ta- san tez- da e- rib. Op- poq qan-
dim, Yum- shoq qan- dim.

1. Choyga solsam
Terib-terib,
Sen ketasan
Tezda erib.
Oppoq qandim,
Yumshoq qandim.

2. Kir qo'l bilan
Ushlamayman.
Uvol qilib
Tashlamayman.
Oppoq qandim,
Yumshoq qandim.

3. Shirin bo'lar
Ichgan choyim.
Hamma sendan
Xursand doim.
Oppoq qandim,
Yumshoq qandim.




Uch chorakli o'lchov

Musiqa asarlarida ikki chorakli o'lchovdan tashqari uch chorakli o'lchov ham bo'ladi. Bu o'lchovda yaratilgan kuylar ko'proq raqs tushishga moyillik tug'diradi. Vals raqsi bunga misol bo'la oladi.


Uch chorakli o'lchovga dirijorlik qilishni o'rganing. Birinchi kuchli hissada qo'l pastga tushadi:



Ikkinchi kuchsiz hissada qo'lni o'ng tomonga harakat qildiramiz:



Uchinchi hissada esa qo'limizni yuqoriga tomon ko'taramiz:



Endi mana bu qo'shiqni kuylab, o'ng qo'limiz bilan uch chorakli o'lchovga dirijorlik qilamiz:



MILLIY CHOLG'ULARIMIZ

BU CHOLG'ULAR QANDAY CHALINADI?



YANGI YIL TILAKLARI



Po'lat Mo'min she'ri
Yefim Shvars musiqasi

Quvnoq



1. Yan- gi yil - da yan-gi xil - da Yu-rak - lar- ning o-vo-



zi. Qay-nab chi - qar, yay- rab chi- qar Ti - lak - lar



ning eng so - zi. Qay- nab chi - qar, yay - rab chi-



qar Ti - lak - lar - ning eng so - zi.

2. Yangi yilda yaxshilarni
Tabriklaymiz, quvnaymiz.
Dangasalik, xafalikni
Ko'ngillardan quvlaymiz.



QUVNOQ BOLALAR QO'SHIG'I

Xurshid Qayumov she'ri

G'afur Qodirov musiqasi

Marshona



Qor yo-g'ar, qor yo- g'ar –oq parga o'x- shar. Xo-na-miz gul och-gan



ba- hor- ga o'x- shar. Yan-gi yil ar-cha-sin Be-zat-dik ko'r-



kam. Shox- la- ri tov- la- nar, Chi- roy- li bi- ram.

1. Qor yog'ar, qor yog'ar –
Oq parga o'xshar.
Xonamiz gul ochgan
Bahorga o'xshar.

2. Davrani keng olib,
Boshlaymiz o'yin.
Aytamiz Yangi yil
Qo'shig'in – kuyin.

Naqarot:

Naqarot

Yangi yil archasin
Bezatdik ko'rkam.
Shoxlari tovlanar,
Chiroyli biram.

QOR



Zulfiya she'ri

Shermat Yormatov musiqasi

Tez

Ol- cha gu- li bar-gi- day o'y-nab u-chib
yo- g'ar qor. A- jab qor-ga qa-ray-man,
ko'-zim-da yash- nar ba- hor. A- jab qor-ga
qa-ray-man, ko'-zim-da yash- nar ba-hor.

2. Daraxtlarning shohida
Qor yashnaydi, xuddi gul.
Qiya tepaliklarning
Yaxida yaltirar ul.

3. Chana tortgan bolalar
Telpagida pag'a qor.
Qiyqirib o'ynashadi,
Shodligida bor bahor.



CHORAK YAKUNI BO‘YICHA SAVOLLAR

1. Qanday ansambl turlarini bilasiz?
2. Xonandalar ansambli qanday bo‘ladi?
3. Cholg‘uchilar ansambli qanday bo‘ladi?
4. «Oppoq qandim» qo‘shig‘ining mualliflari kim?
5. «Oltin paxtam – oppog‘im» qo‘shig‘ining mualliflari kim?
6. Bu chorakda qaysi kompozitor bilan tanishdingiz? Uning qanday qo‘shig‘ini o‘rgandingiz?
7. Bu chorakda sizga qanday qo‘shiqlar va kuylar ko‘proq yoqdi?

UCHINCHI CHORAK

BO‘LAJAK VATAN HIMOYACHILARI



MARSH

J. Bize musiqasi

Marsh tempida





YOSH ASKARLAR QO'SHIG'I


Safar Barnoyev she'ri

Sayfi Jalil musiqasi

Marsh sur'atida



Biz- lar bo-tir yosh jang-chi, Si- nov- lar- da chi- niq- qan.



Si- nov- lar- da chi- niq- qan. U- chuv- chi- miz



ham tank- chi Mashq-lar- da g'o- lib chiq-qan.



Ol- g'a-bu biz- ning shi- or, Saf- da tu- ra-



miz a- dl. Ti- zi- lib tur- na - qa- tor,



Qa- dam tash- lay- miz da- dil.

1. Bizlar botir yosh jangchi
Sinovlarda chiniqqan.
Uchuvchimiz ham tankchi
Mashqlarda g'olib chiqqan.

Naqarot:

Olg'a – bu bizning shior,
Safda turamiz adl.
Tizilib turnaqator,
Qadam tashlaymiz dadil.

2. Do'stga fido jonimiz,
Ochiq dasturxonimiz.
O'zimizday mustahkam
E'tiqod, iymonimiz.

Naqarot

3. Toblanamiz yoz-u qish,
Ko'rib qo'ying, mehmonlar,
Har birimiz Alpomish,
Biz bo'lajak posbonlar.

Naqarot

TINGLANG VA TOPING

Quyidagi kuy parchalari qaysi qo'shiqlardan olingan?
Ularning nomlarini ayting va nota bilan kuylang.

Jonli



Quvnoq



Endi bu qo'shiqlarning musiqalarini qaysi kompozitorlar bastalaganligini ayting.

She'rlarini yozgan shoirlarni ham eslay olasizmi?

Shu berilgan qo'shiqlardan qaysi biri sizga ko'proq yoqadi?

Nima uchun?



MUSIQANING IFODA VOSITALARI

Musiqa – san’atning bir turidir. U turli cho’zim va balandlikdagi tovushlar yordamida obraz yaratib beradi. Musiqaning asosi kuy bo’lib, **o’lchov**, **usul**, **sur’at** va **dinamik belgilar** musiqaning ifoda vositalari hisoblanadi.

Musiqiy tovushlarning bir-biri bilan o’zaro bog’lanishi **kuy** – ohang deyiladi.

Taktda kuchli va kuchsiz hissalarining bir maromda almashib turishiga **o’lchov** deyiladi.

Uzun va qisqa tovushlarning o’zaro almashinib kelishiga **usul** deyiladi.

Musiqiy tovushlarning muayyan tartibda o’zaro bog’lanishi **lad** deyiladi.

Kuy tezligi **sur’at** deyiladi.

Kuyi kuchli yoki kuchsiz jaranglashini ko’rsatuvchi belgilar **dinamik belgilar** deyiladi.





XORAZM KUYI

Xalq kuyi

Sho'x

8



O'ZBEGIMDAN AYLANAY

Habib Rahmat she'ri
Nadim Norxo'jayev musiqasi

Marsh tempida



O'z - be - kis - ton o - na yurt, Dun - yo - da dur -



do - na yurt. Xal - qi tan - ti, meh - nat - kash,



Xal - qi tan - ti, meh - nat - kash,




Do'st - lik - da ya-go - na yurt.



Ham - ma - ni teng siy - lay - di, Tinch - lik, o - mad ti - lay - di.



Ham - ma - ni teng siy - lay - di, Tinch - lik, o - mad ti - lay - di,



1. O'zbekiston ona yurt,
Dunyoda durdona yurt.
Xalqi tanti, mehnatkash,
Do'stlikda yagona yurt.
Hammani teng siylaydi,
Tinchlik, omad tilaydi.
O'ylagani yaxshilik,
Kundan-kunga gullaydi.
2. Qalbidek pok osmoni,
Butdir iymon, vijdoni.
Fe'li kengdir, shu sabab,
To'kindir dasturxoni.
O'zbekimdan aylanay,
O'zligimdan o'rgilay.
Men ham shu yurt farzandi,
Xizmatiga shaylanay.



MUSIQADAGI DINAMIK BELGILAR

Kompozitorlar biror-bir musiqa asarlarini yaratganlarida ularning ma'lum bir qismlarining kuchli yoki kuchsiz ijro qilinishini maxsus belgilar bilan ko'rsatadilar. Bu belgilar asarning yoqimli, jiloli eshitalishiga yordam beradi.


Musiqada bu belgilar «dinamik belgilar» deb ataladi.


Quyida dinamik belgilarning asosiylari ko'rsatilgan. Ularni bilib oling:

f (forte) – kuchli tovush


p (piano) – kuchsiz tovush

Endi tovushlarni asta-sekin kuchaytirib va pasaytirib boruvchi belgilar bilan tanishamiz:

 – bu belgi tovushlarni asta-sekin kuchaytirib borish belgisi, u «kreshchendo» deb o'qiladi.

 – bu belgi tovushlarni asta-sekin pasaytirib borish belgisi, u «diminuendo» deb o'qiladi.

Dinamik belgilarga rioya qilib quyidagi mashqni ijro etamiz:



mi - mo mi - mo



DO'PPI TIKDIM

Turob To'la she'ri

Manas Leviyev musiqasi

Shoshilmay

The musical score is written on seven staves in treble clef, with a key signature of one sharp (F#) and a time signature of 3/4. The melody consists of eighth and quarter notes, often beamed together in pairs. The piece concludes with a double bar line at the end of the seventh staff.

ALTERATSIYA BELGILARI

Tovush qatorda joylashgan asosiy yetti pog'onadagi notalar zarur bo'lgan paytda yarim tonga ko'tarilishi yoki yarim tonga pasaytirilishi mumkin.

Bunday hollarda maxsus belgilardan foydalaniladi. Bu belgilarga «alteratsiya belgilari» deyiladi.

Alteratsiya belgilari \sharp -diyoz, \flat -bemol, \natural -bekar deb nomlanadi. Nota yozuvida bu belgilar nota oldiga qo'yilib, nota nomidan so'ng aytiladi. Musiqa asarlarida diyoz va bemol belgilari sol kalitidan keyin yozib qo'yiladi.



LOLACHA

O'zbek xalq kuyi

Sho'xchan

A musical score for the piece 'Lolacha' in 6/8 time, key of D major. It consists of four staves of music. The first staff begins with a treble clef, a key signature of two sharps (D major), and a 6/8 time signature. The first measure is marked with a repeat sign and a dynamic of $f(p)$. The second measure has a trill (tr) above it. The second staff also starts with a treble clef, D major key signature, and 6/8 time signature. It begins with a trill (tr) above the first note, followed by a dynamic of $f(p)$. The third staff starts with a treble clef, D major key signature, and 6/8 time signature. It features a series of notes with accents (>) above them, followed by a dynamic of f . The fourth staff starts with a treble clef, D major key signature, and 6/8 time signature. It begins with a dynamic of $f(p)$. The score concludes with a double bar line and repeat dots.

DIYEZ


Diyez – # belgisi tovushni yarim ton, ya'ni yarim bosqich yuqori ko'taradi. Nota yo'lida u quyidagicha yoziladi:



do-diyez



sol-diyez



fa-diyez

Quyidagi qo'shiqni birga kuylaymiz va undagi notalarga tegishli bo'lgan «diyoz» belgisini aniqlaymiz:



GUL TERDI GULLAR

Po'lat Mo'min she'ri

Nadim Norxo'jayev musiqasi

Quvnoq



1. O'-g'il bo-la, qiz bo-la,

Qir -dan ter-di



gul - lo - la.

Qa-ra - san-giz

u - lar -

-ga, Naqarot: U-lar o'x-shar gul - lar - ga.

Gul ter - di, gul ter - di, Gul ter - di gul- lar.

Eh, qa - rang, rang-ba - rang, gul ter -di qo'l -lar. Gul ter - di,

gul ter - di, Gul ter - di gul - lar, Eh, qa- rang

rang-ba -rang gul ter - di qo'l - lar.

2. Gullar terib ozmuncha,
O'ynadilar to'yguncha.
Har tomonga chopdilar,
Yangilarin topdilar.

Naqarot.

3. Quyoshda tovlandilar,
Chamanda tovlandilar.
Do'stlariga ataylab
Gul terdilar avaylab.

Naqarot.



BEMOL

Bemol – \flat belgisi tovushni yarim ton pasaytiradi. Nota yo'lida u quyidagicha yoziladi:



mi-bemol




si-bemol

Diyez belgisi kabi bemol ham notadan avval yozilib, notadan so'ng o'qiladi.

Ko'pincha minor ladlarida asar yaratish uchun bemol belgisi qo'llaniladi:

re-minor



Endi quyidagi kuyi tinglang va undagi si-bemoldan tashqari, yana qaysi notaga bemol belgisi qo'yilganligini toping:

ORUXON



Qoraqalpoq xalq kuyi

O'rtacha tez

A musical score for the piece 'Oruxon'. It consists of four staves of music in 2/4 time, written in a key signature of one flat (B-flat). The melody is written in a treble clef. The first staff begins with a treble clef, a key signature of one flat, and a 2/4 time signature. The music features a mix of eighth and sixteenth notes, with some rests. The piece concludes with a double bar line at the end of the fourth staff.



BOYCHECHAGIM OMONLIK

Qambar Ota she'ri
Nadim Norxo'jayev musiqasi

Tez

Yer-ni qor qop- lab yo- tar, Sen u-chun tong-
lar o- tar. Meh- ring o'- ti- da muz,
qor, E- rib soy- lar- ga o- qar.
Boy-che-cha-gim, boy-che-chak, Ku- lib chiq- qan
oy- che- chak. Ba- hor- da qir, da- lam- ga
Qo'- sha- san chi- roy che- chak.
Qo'- sha - san chi- roy, che- chak.



PORLAR KAMALAK

Jumaniyoz Jabborov she'ri
Nadim Norxo'jayev musiqasi

Tez $\text{♩} = 103$

Por - lar ka-ma- lak, por - lar.

O'y - nar ka - pa - lak, o'y - nar

Qay- nar su-ma - lak,

Qay - nar su - ma - lak, Nav - ro' -

zi o - lam.

Uch - gil var - ra - gim, Zar - rin par - ra - gim,

Nur ja - ma - la- gim Nav - ro'


zi o - lam. Os-mon be-lan - chak,
 Oy - dir ke-lin - chak,
 Far - zand ke - la - jak Nav - ro' - zi o - lam.
 Nav - - ro' - zi o - lam.

§ CODA

Nav - ro' - zi o - lam.



BEKAR

Ma'lum bir tovush oldiga qo'yilgan diyez yoki bemol belgisini bekor qilib, tovushni asl holiga keltirish zarur bo'lganda bekar –  belgisi ishlatiladi. Bu belgi quyidagi shaklda yoziladi:



fa-diyez fa-bekar si-bemol si-bekar

Mana bu asarda bekar belgisi yordamida fa-diyez va do-diyez tovushlari bekor qilinib, asli «fa» va «do» holatiga keltirilgan.

Notani diqqat bilan kuzating va bekar holatlarini o'zingiz toping.



RAQS

O'zbek xalq kuyi

Yengil





SVETOFOR



Safo Ochil she'ri

Sa'dulla Nurmetov musiqasi

§ O'rtacha Naqarot:

Uch o- g'ay-ni bo- tir- miz, Uch xil rang- da no- dir- miz.


Qi- zil, ya-shil, sa-riq- miz, Kuch-qud- rat- ga qo- dir- miz.

1. 2. *tr*

Ham-ji- hat- miz do- im biz, Chor- ra - ha-lar

jo- yi- miz. Vaq- ti bi-lan nur so- char, Uch-ta to'- lin

o- yi- miz. Qi- zil, ya-shil,




Naqarot:


Uch og'ayni botirmiz,
Uch xil rangda nodirmiz.
Qizil, yashil, sariqmiz,
Kuch-qudratga qodirmiz.


1. Hamjihatmiz doim biz,
Chorrahalar joyimiz.
Vaqti bilan nur sochar
Uchta to'lin oyimiz.
2. Qizil yonsa, tik turing,
Yashil yonsa, tez yuring,
Sariq yonsa, ehtiyot
Chorasini ham ko'ring.
3. Gapimiz shu sizlarga:
Barcha o'g'il-qizlarga –
